TSUE

# YASHIL

## IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

# GREEN ECONOMY AND DEVELOPMENT

*Social, Economic, Technological, Scientific and Popular Science Journal*

2026-YIL / AVGUST / 8-SON, I-QISM

Google scholar

RePEc RESEARCH PAPERS IN ECONOMICS



ISSN: 2992-8982

https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Elektron nashr. 2026-yil, avgust.
I-qism

**Bosh muharrir:**
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich**

**Bosh muharrir o'rinbosari:**
**Karimov Norboy G'aniyevich**

**Muharrir:**
**Qurbonov Sherzod Ismatillayevich**

**Tahrir hay'ati:**
**Salimov Oqil Umrzoqovich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich,** O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Rae Kvon Chung,** Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
**Osman Mesten,** Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
**Axmedov Durbek Kudratillayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Sayfullo Normatovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Kalonov Muxiddin Baxritdinovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Siddiqova Sadoqat G'afforovna,** pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Xudoyqulov Sadirdin Karimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Maxmudov Nosir,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Samadov Asqarjon Nishonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
**Slizovskiy Dimitriy Yegorovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Axmedov Ikrom Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xajiyev Baxtiyor Dushaboyevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Hakimov Nazar Hakimovich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
**Ali Konak (Ali Ko'nak),** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
**Cham Tat Huei,** falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
**Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li,** O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
**Utayev Uktam Choriyevich,** Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
**Ochilov Farkhod,** O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
**Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Axmedov Javohir Jamolovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li,** texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
**Djudi Smetana,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Krissi Lyuis,** pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
**Glazova Marina Viktorovna,** Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
**Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi,** iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Sevil Piriyeva Karaman,** falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li,** TDIU ITI departamenti rahbari
**Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li,** TDIU katta o'qituvchisi
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
**Abdukarimova Dinara Rustamxanovna,** bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
**Ikramov Murod Akramovich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

YASHIL
IQTISODIYOT&TARAQQIYOT
*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Editorial board:**
**Salimov Okil Umrzokovich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjayevich,** Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
**Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Rae Kwon Chung, South Korea,** Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
**Osman Mesten,** Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Sayfullo Normatovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Kalonov Mukhiddin Bakhriddinovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Siddikova Sadokat Gafforovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Makhmudov Nosir,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Samadov Askarjon Nishonovich,** Candidate of Economic Sciences, Professor
**Slizovskiy Dmitriy Yegorovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Akhmedov Ikrom Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Eshtayev Alisher Abduganiyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khakimov Nazar Khakimovich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Musayeva Shoira Azimovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
**Ali Konak,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
**Cham Tat Huei,** Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
**Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Fakhridinov Zafarjon Fakhridin ogli,** Head of the DCEC under the Prosecutor Genera's Office of the Rep. of Uzb.
**Utayev Uktam Choriyevich,** Deputy Prosecutor of Anijan Region
**Ochilov Farkhod,** Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
**Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Akhmedov Javokhir Jamolovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli,** Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
**Bobobekov Ergash Abdumalikovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
**Judi Smetana,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Chrissy Lewis,** Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
**Glazova Marina Victorovna,** Doctor of Sciences in Economics (Moscow))
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
**Sevil Piriyeva Karaman,** Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli,** Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
**Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli,** Senior lecturer at TSUI
**Golisheva Yelena Vyacheslavovna,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor.
**Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Ikramov Murod Akramovich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Nazarova Ra'no Rustamovna,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:
**Berkinov Bazarbay,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Po‘latov Baxtiyor Alimovich,** texnika fanlari doktori (DSc), professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** falsafa fanlari doktori (DSc), professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
**Xalikov Suyun Ravshanovich,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Rustamov Ilhomiddin,** iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Kamilova Iroda Xusniddinovna,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**G‘afurov Doniyor Orifovich,** pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)
**Fayziyev Oybek Raximovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi,** iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** katta o‘qituvchi
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** mustaqil tadqiqotchi
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Geografiya fanlari doktori, professori
**Umirzoqov Ja’sur Artiqboy o‘g‘li,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
**Zebo Kuldasheva,** iqtisodiyot fanlari doktori (DSc ), dotsent

Board of Experts:
**Berkinov Bazarbay,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Pulatov Bakhtiyor Alimovich,** Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich,** Doctor of Philosophy (DSc), Professor
**Isakov Janabay Yakubbayevich,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
**Khalikov Suyun Ravshanovich,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Rustamov Ilkhomiddin,** Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
**Khakimov Ziyodulla Akhmadovich,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Kamilova Iroda Khusniddinovna,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
**Gafurov Doniyor Orifovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
**Fayziyev Oybek Rakhimovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich,** Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
**Khamidova Faridakhon Abdulkarimovna,** Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
**Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna,** Senior Lecturer
**Babayeva Zuhra Yuldashevna,** Independent Researcher
**Komilova Nilufar Karshiboyevna,** Doctor of Geographical Sciences, Professor
**Umirzokov Jasur Artiqboy ugli,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
**Zebo Kuldasheva,** Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
08.00.02 Makroiqtisodiyot
08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
08.00.04 Qishloq xo‘jaligi iqtisodiyoti
08.00.05 Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
08.00.06 Ekonometrika va statistika
08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
08.00.11 Marketing
08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
08.00.13 Menejment
08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: “Ma’rifat-print-media” MChJ
Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O‘zbekiston Respublikasi Bosh prokuraturasi huzuridagi Iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti

Jurnalning ilmiyligi:
““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali
O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

# MUNDARIJA

O'RTA DAROMADLI MAMLAKATLARDA INNOVATSION XARAJATLARNING EKSPORT DIVERSIFIKATSIYASIGA TA'SIRI ....20
Karimova Xulkar Raxmanali qizi
Jalg'ashova Nazira Umbet qizi

MINTAQADA SANOAT SALOHIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING HOZIRGI HOLATI TAHLILI ....26
Mamedov Ko'palboy Masharipovich

TA'LIM XIZMATLARINI BOSHQARISHDA XALQARO STANDARTLAR ASOSIDA SIFATNI TA'MINLASH ....30
Umarov Ravshanjon Gafurovich

SANOAT KORXONALARIDA INNOVATSION FAOLIYAT SAMARADORLIGINI BAHOLASH USULLARI ....36
Mamurov Doniyor Eldorovich

MINTAQAVIY IQTISODIY RIVOJLANISHDA YASHIL INVESTITSIYALARDAN FOYDALANISH TAMOYILLARI VA USULLARI ....43
Ro'zimov Doniyor Soporboy o'g'li

TOSHKENT METROPOLITENI SANOATIDA MAHALLIYLASHTIRISH DARAJASINING DINAMIKASI VA UNI XALQARO TAJRIBA BILAN QIYOSIY BAHOLASH ....49
Mansurov Xamrokul Ilxomovich

ЦИФРОВАЯ САМООРГАНИЗАЦИЯ БУДУЩИХ МЕНЕДЖЕРОВ КАК ФАКТОР ЭФФЕКТИВНОСТИ САМОСТОЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ ....56
Мирвосиқий Хилола Хабибулла қизи

XORAZM VILOYATIDA AHOLI BANDLIGINI TA'MINLASHNING ILMIY-AMALIY TAHLILI ....64
Z.Sh. Matniyozova

DEVELOPMENT MECHANISMS OF EMBEDDED FINANCE SERVICES IN COMMERCIAL BANKS OF UZBEKISTAN BASED ON OPEN BANKING ....69
Khurramova Fotima Bakhodir qizi

IMPROVING THE PRACTICE OF FINANCING INVESTMENT PROJECTS THROUGH SYNDICATED LOANS PROVIDED BY COMMERCIAL BANKS ....76
Xudaynazarov Davrbek Abdullayevich

TASHQI SAVDO DINAMIKASI VA BANK MOLIYAVIY XAVFSIZLIGI: O'ZBEKISTON TIJORAT BANKLARI MISOLIDA AMALIY TAHLIL ....83
Babadjanov Shuxrat Atxamovich

GREEN LENDING PRACTICED AMONG UZBEK COMMERCIAL BANKS: SURVEY- BASED ASSESSMENT OF READINESS AND CONSTRAINTS ....90
Avazov Azizbek Ashurali o'g'li

"YANGI O'ZBEKISTON – 2030" STRATEGIYASI DOIRASIDA IQTISODIY O'ZGARISHLARNING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNING SAMARADORLIGI ....96
Amirov Otabek Xudoyberdi o'g'li

BARQAROR YASHIL INVESTITSIYALARNING QAYTA TIKLANUVCHI ENERGETIKA RIVOJIGA ROLINI VA HISSASINI TAHLIL QILISH: O'ZBEKISTON MISOLIDA ....101
Zilola Kazakova

HUDUD SANOATIDA KAPITAL VA MEHNAT RESURSLARI SAMARADORLIGINI KOBB–DUGLAS MODELI YORDAMIDA BAHOLASH ....113
Turayev Baxrom Ergashevich

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

"MAHALLA BANKIRI" INSTITUTI DAVLATBANK HAMKORLIGINING OPERATSION BO'G'INI SIFATIDA: SAMARADORLIK MEZONLARI VA OPTIMAL YUKLAMA PARAMETRLARI ..... 120
Nurmuratov Azamat Mamarizo o'g'li
SHAHAR JAMOAT TRANSPORTI YO'NALISHLARINING AHOLI EHTIYOJLARIGA MOSLIGINI TADQIQ ETISH (URGANCH SHAHRI MISOLIDA) ..... 127
Abdullayeva Shahzodaxon Fazliddin qizi
O'ZBEKISTONDA QISHLOQ XO'JALIGINI RO'YXATGA OLISHNING AGRAR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHDAGI INSTITUTSIONAL ROLI ..... 132
Shohujayeva Zebo Safoyevna
Xolov Javlonbek Davronovich
УЗБЕКИСТАН КАК АКАДЕМИЧЕСКИЙ ХАБ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ ..... 138
Эргашева Шахло Тургуновна
БУХГАЛТЕРСКИЙ УЧЕТ КАК ИНФОРМАЦИОННАЯ ОСНОВА ФИНАНСОВОГО КОНТРОЛЯ ПРЕДПРИЯТИЯ ..... 146
Маннапова Раъно Аброровна
YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYAVIY, INSTITUTSIONAL VA RAQAMLI QO'LLABQUVVATLASHNING INTEGRATSIYALASHGAN RAQAMLI MODELLARI: "3M-PLATFORMA" VA "SMART YOUTH BUSINESS ECOSYSTEM" KONSEPSIYALARI ..... 154
Xojiyev Ma'murjon Muxsinjon o'g'li
RAQAMLI BANK XIZMATLARINING IQTISODIY VA INSTITUTSIONAL XUSUSIYATLARI ..... 163
Begimqulova Sevara Nurmamatovna
KICHIK TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING IQTISODIY SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI ..... 169
Yusupov Muxiddin Soatovich
Normaxmatov Fazliddin Nuriddin o'g'li
OLIY TA'LIMDA INNOVATSION MENEJMENT IMKONIYATLARIDAN SAMARALI FOYDALANISH ..... 177
Abdullayev Farhod Ozodovich
"YASHIL MAKON" UMUMMILLIY LOYIHASINI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILIY-AMALIY NATIJALARI ..... 180
Jamshidbek Bobojonov
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARI EKSPORTI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA KLASTERLARNING AHAMIYATI ..... 184
Radjabova Mavluda Ergash qizi
STRENGTHENING MAHALLA ENTREPRENEURSHIP THROUGH AN INTEGRATED ECOSYSTEM: FUNCTIONAL LINKAGES, DIGITAL COORDINATION, AND REGIONAL EVIDENCE ..... 189
Zafarjon Odiljonovich Tuxtasinov
MINTAQANI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA GENERATIV SUN'IY INTELLEKT INFRATUZILMASINING NAZARIY ASOSLARI ..... 195
Saidov Jaloladdin Allaberganovich
KORXONALARDA BOSHQARUV QARORLARINI QABUL QILISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ..... 202
Mamajonova Surayyoxon Maxmudjonovna
PAXTA-TO'QIMACHILIK KLASTERLARIDA INNOVATSION RIVOJLANISHNING HUDUDIY XUSUSIYATLARINI BAHOLASH METODIKASI ..... 207
Tojiyev Sa'dulla Muhitdinovich
INNOVATIONS IN TECHNOLOGY AND SCIENCE EDUCATION IMPROVING ECONOMIC INCENTIVE AND RESOURCE-ALLOCATION MECHANISMS AS A FACTOR IN INCREASING THE EFFICIENCY OF INDUSTRIAL ENTERPRISES: EVIDENCE FROM THE "TECHNOPARK" ENTERPRISE ..... 213
Erkinova Umidakhon Ilhom qizi

THE IMPACT OF ARTIFICIAL INTELLIGENCE-BASED RECRUITMENT SYSTEMS ON HIRING QUALITY ........ 218
Mutalova Manzura Abdushukur qizi
TOMORQA XOʻJALIGI FAOLIYATI BILAN BOGʻLIQ NOQISHLOQ XOʻJALIGI FAOLIYATINING TAʼSIRINI IQTISODIY BAHOLASH ........ 224
U.U.Nurullayev
SHAHAR HUDUDLARIDA EKOLOGIK MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH MASALALARI ........ 230
Asqarov Akmal Anvar oʻgʻli
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELINI BOSHQARISHNING METODOLOGIK ASOSLARI ........ 235
Ziyodullayev Sodiqjon Mamadillayevich
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI SOHASIDA MOLIYAVIY NATIJALAR AUDITI METODOLOGIYASINI TAKOMILLASHTIRISHNING YAXLIT TIZIMI ........ 240
Bekchanov Faxriddin Atabekovich
MAHALLIY TURIZMNI RIVOJLANLANTIRISHNING TASHKILIYIQTISODIY MEXANIZMINING ASOSIY FUNKSIYA VA PRINSIPLARI ........ 246
Xayrullayev Elbek Xayrulla oʻgʻli
ЛИЗИНГ КАК ИНСТРУМЕНТ ТЕХНОЛОГИЧЕСКОГО ОБНОВЛЕНИЯ ТЕКСТИЛЬНЫХ ПРЕДПРИЯТИЙ УЗБЕКИСТАНА: ФИНАНСОВЫЕ ВОЗМОЖНОСТИ И ОГРАНИЧЕНИЯ ........ 250
Дадабоева Муштари Хамидиллаевна
TIJORAT BANKLARIDA CHAKANA BANK XIZMATLARINI RIVOJLANTIRISHGA TAʼSIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH ........ 261
Abdiraxmonov Farxod Arabboyevich
HUDUDLAR IQTISODIY XAVFSIZLIGINI BOSHQARISH MEXANIZMLARINING NAZARIY MODELLARI ........ 267
Jurayev Ismatulla Izzatullayevich
FINANCIAL MODELS IN THE EDUCATION SECTOR: A COMPARATIVE INSTITUTIONAL ANALYSIS OF STATE, PRIVATE, AND MIXED FUNDING SYSTEMS ........ 275
Imomov Inomiddin
SANOAT KORXONALARIDA INVESTITSION JARAYONLARNI BOSHQARISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMI ........ 281
Siddiqov Abdusalom Abdumalikovich
NOANʼANAVIY PUL-KREDIT SIYOSATI INSTRUMENTLARINING IQTISODIY MOHIYATI VA MAZMUNI ........ 292
Djumonov Dilshod Safarolievich
URBANIZATSIYA SHAROITIDA EKOLOGIK BARQARORLIKNI TAʼMINLASH MUAMMOLARI ........ 302
Shodmonov Nurjaxon Shokir oʻgʻli
QORAQALPOGʻISTON RESPUBLIKASIDA KICHIK VA OʻRTA BIZNESNI QOʻLLAB QUVVATLASHNING IQTISODIY OMILLARI VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI ........ 308
Reimbergenov Xurrambek Xushnudovich
OʻZBEKISTONDA KOʻCHMAS MULK BOZORI XIZMATLARINING HOZIRGI HOLATI VA ULARNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YOʻNALISHLARI ........ 314
Sadikova Dildora Abdulla qizi
QORAQALPOGʻISTON RESPUBLIKASIDA AGROTURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING STRATEGIK YOʻNALISHLARI ........ 321
Baxadir Adilchayev
EKOLOGIK TAʼLIMNI RIVOJLANTIRISH ORQALI BARQAROR RIVOJLANISHNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK ASOSLARI ........ 327
Ergasheva Mohinurxon Odilxon qizi

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

BANK OPERATSIYALARI BO'YICHA ICHKI AUDIT AMALLARINING MAZMUNIY VA USLUBIY TAHLILI ........ 331
Yuldashev Xurshidbek Mamirjonovich
РАЗРАБОТКА И ПРИМЕНЕНИЕ МОДЕЛИ КОМПЕТЕНЦИЙ ДЛЯ ГОСУДАРСТВЕННЫХ СЛУЖАЩИХ ........ 341
Гофурова Шахрибону Комол қизи
INNOVATION-DRIVEN BUSINESS COMPETITIVENESS THROUGH DIGITAL TRANSFORMATION AND TECHNOLOGICAL CAPABILITY ........ 349
Sarvinoz Asamova
HUDUDIY INVESTITSIYA OQIMLARINI DIFFERENSIAL BAHOLASH ASOSIDA MINTAQAVIY IQTISODIY O'SISHNI MANZILLI RAG'BATLANTIRISH ........ 359
Ismoilov Azizbek Rustamjon o'g'li
XIZMAT KO'RSATISH SOHASINI RIVOJLANTIRISH ORQALI KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH YO'LLARI BO'YICHA XORIJ TAJRIBALARI ........ 368
Samiyev Mirkamol Amriddin o'g'li
ИНВЕСТИЦИОННАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ В УСЛОВИЯХ СОВРЕМЕННОЙ РЫНОЧНОЙ ЭКОНОМИКИ: СУЩНОСТЬ, РОЛЬ И ОСНОВНЫЕ НАПРАВЛЕНИЯ РАЗВИТИЯ ........ 372
Матчанов Умирзак Сейтжанович
O'ZBEKISTONDA YASHIL LOGISTIKA TAMOYILLARI ASOSIDA MULTIMODAL TRANSPORT-LOGISTIKA KORIDORLARINI RIVOJLANTIRISHNING TASHKILIY-IQTISODIY MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH ........ 379
Islomjon Jamshedovich Jamshedov
YASHIL INVESTITSIYALARNING HUQUQIYINSTITUTSIONAL ASOSLARINING RIVOJLANISH BOSQICHLARI ........ 389
Temirova Nozima Shuhrat qizi
ELEKTRON SAVDO PLATFORMALARIDA MOLIYAVIY TAHLILNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI VA XALQARO TAJRIBA ........ 395
Amanqulova Muxlisa Narsafar qizi
MEHNAT UNUMDORLIGI VA MEHNAT RESURSLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIKNI BAHOLASH ........ 403
Rashidov Zuhriddin Sanjar o'g'li
MINTAQA IQTISODIYOTINI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA KLASTERLASHNING ASOSIY TAMOYILLARI VA KONSEPTUAL ASOSLARI ........ 408
Movlonova Dilrabo Nomoz qizi
HUDUD IQTISODIY TIZIMIDA INNOVATSION INFRATUZILMANING BARQAROR RIVOJLANISHGA TA'SIRINI BAHOLASH ........ 412
Sapayev Sindor Qadamboy o'g'li
KORPORATIV BOSHQARUV TIZIMDA KPINING AHAMIYATI VA UNI JORIY ETISHNING ILMIY-NAZARIY YONDOSHUVLARI ........ 418
Botirjon Ergashov
MO'YNA VA TRIKOTAJ MATERIALLARNI YOPISHTIRISH UCHUN SUVLI POLIMER YOPISHTIRUVCHI KOMPOZITSIYA: TARKIBI, TAYYORLASH USULI VA XOSSALARI ........ 424
Temirova Gulnoz Ibodovna
Shodmonova Mijgona Salimovna
SURXONDARYO VILOYATI TURIZM SALOHIYATINI BAHOLASHNING KOMPLEKS MODELI ........ 429
Mamatov Sardor Ilyosovich
Rashidova Nargiza Orifjon qizi
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARIDA INTERNETMARKETING TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI BAHOLASHNING EKONOMETRIK TAHLILI VA EMPIRIK NATIJALAR ........ 435
Pirmatov Oybek Shovkat o'g'li

XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA INSON
KAPITALINI SAMARALI BOSHQARISH YO'LLARI ........................................ 442
Raxmonov Shuxrat Shavkatovich
PAXTA YETISHTIRISHDA QO'LLANILADIGAN BARQAROR QISHLOQ XO'JALIK
AMALIYOTLARI: XALQARO ILMIY ADABIYOTLARNING TIZIMLI TAHLILI ........................................ 447
Rashitova Nilufar Xatambayevna
Mirkasimov Baxrom Ravshanovich
Karimov Komiljon Xamidovich
Abduvaliyeva Nilufar Muxamadnosir qizi
RAQAMLI BANKLAR VA KIBERXAVFSIZLIK: ZAMONAVIY
TAHDIDLAR VA HIMOYA USULLARI ........................................ 465
Abrorov Azizjon Akobirovich
HUDUDLAR RIVOJLANISHI SHAROITIDA SANOAT KORXONALARINING
RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH UCHUN XAVFSIZLIK MEXANIZMLARINI
TAKOMILLASHTIRISH YONDASHUVLARI ........................................ 470
Xalilov Nurullo Xamidillayevich
HUDUDIY INVESTITSIYA OQIMLARINI DIFFERENSIAL BAHOLASH ASOSIDA
MINTAQAVIY IQTISODIY O'SISHNI MANZILLI RAG'BATLANTIRISH........................................ 476
Ismoilov Azizbek Rustamjon o'g'li
AKSIYADORLIK JAMIYATLARI INVESTITSIYA LOYIHALARINI MOLIYALASHTIRISH
AMALIYOTINING TAHLILI........................................ 485
Jumaniyazova Feruza Rajabovna
O'ZBEKISTONDA XALQARO EKOLOGIK MAJBURIYATLARNI AMALGA OSHIRISHDA
DAVLAT SIYOSATI VA HUQUQIY JAVOBGARLIKNI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI ........................ 491
G'ayratullayev Noxidxon Iqboljon o'g'li
XIZMAT KO'RSATISH KORXONALARIDA RAQAMLASHTIRISH ORQALI
TIJORAT RISKLARINI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI ........................................ 495
Sharipova Gulmira Toxirovna
MINTAQAVIY RIVOJLANISH TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA TARKIBIY ELEMENTLARI........................ 502
Rasuljonov Abu Bakr Abdumalik o'g'li

MUNDARIJA СОДЕРЖАНИЕ CONTENTS

# MINTAQAVIY RIVOJLANISH TUSHUNCHASI, MAZMUNI VA TARKIBIY ELEMENTLARI

**Rasuljonov Abu Bakr Abdumalik oʻgʻli**
**Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti mustaqil tadqiqotchisi**
**E-mail: rasuljanovabubakir6@gmail.com**

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada mintaqaviy rivojlanish tushunchasining nazariy mazmuni va tarkibiy elementlari ilmiy jihatdan tizimlashtirildi. Tadqiqotda iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional, fazoviy, innovatsion, inson kapitali hamda tarmoq-klaster omillari qiyosiy tahlil qilindi. Tarixiy-mantiqiy, tizimli-tuzilmaviy va qiyosiy usullar asosida elementlar oʻrtasidagi funksional bogʻliqlikni ifodalovchi konseptual sxema ishlab chiqildi. Har bir elementga mos indikator guruhlari belgilandi va xalqaro metodologik yondashuvlar bilan uygʻunlashtirildi. Olingan natijalar mintaqaviy rivojlanishni koʻp oʻlchovli jarayon sifatida baholash, hududlar kesimida taqqoslashni takomillashtirish va monitoring tizimini izchil shakllantirish imkoniyatlarini koʻrsatdi. Taklif etilgan tasnif hududiy resurslar, boshqaruv sifati va aholi farovonligi oʻrtasidagi bogʻliqlikni kompleks baholash uchun ilmiy asos yaratdi. Ushbu yondashuv milliy strategik maqsadlarni hududiy indikatorlar bilan uygʻunlashtirish, amaliy baholash aniqligini oshirish va boshqaruv qarorlarini dalillarga tayangan holda shakllantirish imkoniyatini kengaytirdi.

**Kalit soʻzlar:** mintaqaviy rivojlanish, iqtisodiy rivojlanish, inson kapitali, innovatsiya, institutsional muhit, fazoviy rivojlanish, klaster, monitoring.

**Аннотация:** В статье были систематизированы теоретическое содержание и структурные элементы регионального развития. В исследовании были сравнительно проанализированы экономические, социальные, институциональные, пространственные, инновационные факторы, человеческий капитал и кластерные связи. На основе историко-логического, системно-структурного и сравнительного методов была разработана концептуальная схема функциональной взаимосвязи элементов. Для каждого элемента были определены соответствующие группы индикаторов и согласованы с международными методологическими подходами. Полученные результаты показали возможности оценки регионального развития как многомерного процесса, совершенствования межрегиональных сопоставлений и последовательного формирования системы мониторинга. Предложенная классификация создала научную основу для комплексной оценки взаимосвязей между региональными ресурсами, качеством управления и общественным благосостоянием. Подход также расширил возможности согласования национальных стратегических целей с региональными индикаторами, повышения точности оценки и обоснования управленческих решений в региональной практике.

**Ключевые слова:** региональное развитие, экономическое развитие, человеческий капитал, инновации, институциональная среда, пространственное развитие, кластер, мониторинг.

**Abstract:** This article systematized the theoretical content and structural elements of regional development. The study comparatively examined economic, social, institutional, spatial, innovation, human capital, and cluster-related dimensions. Using historical-logical, systemic-structural, and comparative methods, a conceptual framework describing the functional relationships among these elements was developed. Relevant groups of indicators were defined for each component and aligned with international methodological approaches. The findings demonstrated opportunities to assess regional development as a multidimensional process, improve interregional comparisons, and establish a consistent monitoring system. The proposed classification provided a scientific basis for evaluating the relationships among regional resources, institutional quality, innovation capacity, and social welfare, while also supporting further empirical research and practical territorial planning.

**Keywords:** regional development, economic development, human capital, innovation, institutional environment, spatial development, cluster, monitoring.

## KIRISH

Mintaqaviy rivojlanish tushunchasi iqtisodiyot nazariyasida hududiy tizimlarning sifat jihatidan oʻzgarish jarayonini ifodalovchi toifa sifatida shakllandi. Uning mazmuni oddiy hajmiy oʻsishdan farq qiladi: oʻsish miqdoriy koʻrsatkichlarning ortishini bildirsa, rivojlanish iqtisodiy makon tuzilmasining yangilanishini, tarmoqlar tarkibining takomillashuvini va aholi hayot sifatining yaxshilanishini qamrab oladi. F. Perroux iqtisodiy makonni kuchlar maydoni sifatida talqin qilib, rivojlanish impulsi yetakchi tarmoq atrofida shakllanishini va u yerdan hududga tarqalishini asoslab berdi [1]. Ushbu talqin tushunchaning tuzilmaviy mazmunini belgilab berdi.

D. North mintaqaviy oʻsish manbalarini tashqi talab bilan bogʻlab, eksportga yoʻnaltirilgan tarmoqlar hududning ichki xizmat sohasini, bandlik tuzilmasini va daromad darajasini shakllantirishini koʻrsatdi [2]. R. Solow neoklassik modeli hududlar oʻrtasidagi daromad tafovutlarining vaqt oʻtishi bilan kamayish tendensiyasini nazariy jihatdan asosladi [3]. J. Williamson esa tafovutlar dinamikasi milliy taraqqiyot bosqichlariga bogʻliq ravishda oʻzgarishini teskari U shaklidagi bogʻliqlik orqali umumlashtirdi [4]. Uch yondashuv rivojlanish tushunchasiga vaqt oʻlchovini kiritdi.

Zamonaviy talqinda mintaqaviy rivojlanish koʻp oʻlchovli toifa sifatida qaraladi. Uning mazmuni iqtisodiy natija, ijtimoiy farovonlik, institutsional sifat va fazoviy muvozanat oʻlchovlarini birlashtiradi. Tushunchaning tarkibiy elementlarini aniq ajratish tadqiqot uchun ikki jihatdan ahamiyatli: birinchidan, u tahlil chegaralarini belgilaydi; ikkinchidan, oʻlchov tizimining tuzilishini oldindan asoslaydi. Elementlar tasnifining nazariy asoslanmagani baholash natijalarining taqqoslanuvchanligini cheklaydi.

Maqolaning maqsadi mintaqaviy rivojlanish tushunchasining nazariy mazmunini aniqlashtirish, uning tarkibiy elementlarini asoslangan tarzda ajratish va elementlar oʻrtasidagi funksional bogʻliqlikni ifodalovchi konseptual sxemani ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot vazifalari tushunchaning nazariy shakllanish mantigʻini umumlashtirish, elementlar tasnifini asoslash hamda ularga mos indikator guruhlarini belgilashni qamrab oldi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Rivojlanish manbalarini tizim ichida izlash yoʻnalishi tushunchaning inson oʻlchovini kuchaytirdi. R. Lucas inson kapitalining toʻplanishi va uning tashqi effektlari hududiy unumdorlikni belgilashini koʻrsatdi [5]. P. Romer bilimni iqtisodiy tizimning ichki mahsuli sifatida talqin qilib, texnologik oʻzgarishning uzluksizligi rivojlanishning uzoq muddatli asosini yaratishini asosladi [6]. Ikki yondashuv taʼlim, malaka va innovatsion salohiyatni rivojlanish tushunchasining mustaqil tarkibiy elementlariga aylantirdi.

Fazoviy oʻlchovni tushuntirishda P. Krugman ortib boruvchi qaytim va transport xarajatlari muvozanati iqtisodiy faoliyat toʻplanishini belgilashini modellashtirdi [7]. M. Storper hududni bozor orqali oʻlchanmaydigan oʻzaro bogʻliqliklar tugunlari sifatida talqin qilib, ishonch va norasmiy qoidalarning iqtisodiy qiymatini koʻrsatdi [8]. M. Porter klaster konsepsiyasi orqali korxonalar, yetkazib beruvchilar va institutlar oʻrtasidagi yaqin aloqalar unumdorlikni oshirishini asosladi [9]. R. Camagni hududiy raqobatbardoshlikni kollektiv resurslar sifati va oʻrganish qobiliyati bilan bogʻladi [10].

R. Boschma yaqinlikning kognitiv, tashkiliy, ijtimoiy, institutsional va geografik turlarini ajratib, ularning innovatsion hamkorlikka taʼsirini tizimlashtirdi [11]. F. Cooke va uning hammualliflari hududiy innovatsion tizimning institutsional hamda tashkiliy oʻlchovlarini asoslab, bilim aylanishi tarmoq tuzilishiga bogʻliqligini koʻrsatdilar [12]. R. Martin va P. Sunley hududiy bardoshlilikni tizimning tuzilmasini qayta shakllantirish qobiliyati sifatida izohladilar [13]. A. Rodríguez-Pose taraqqiyot markazlaridan uzoqdagi hududlarni rivojlantirish siyosatining ijtimoiy ahamiyatini asoslab, hududiy imkoniyatlarni kengaytirish milliy birdamlikni mustahkamlashini koʻrsatdi [14]. F. Barca, F. McCann va A. Rodríguez-Pose joyga asoslangan siyosat modelining institutsional ustunliklarini isbotladilar [15].

Adabiyotlar sharhi rivojlanish tushunchasining bir oʻlchovli talqindan koʻp oʻlchovli talqinga oʻtish mantigʻini koʻrsatadi. Manbalarda iqtisodiy, ijtimoiy, innovatsion va institutsional oʻlchovlar alohida-alohida chuqur oʻrganilgan boʻlsa-da, ularni yagona tasnif doirasida birlashtiruvchi va indikator guruhlariga bogʻlovchi tizimli ishlanma yetarli emas. Ushbu holat maqolaning tadqiqot vazifasini belgilaydi.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot nazariy tahlil usullariga tayandi. Tushuncha mazmunini aniqlashtirishda mantiqiy taʼriflash va tarixiy-mantiqiy usul qoʻllanildi; elementlarni ajratishda tizimli-tuzilmaviy tahlil, ularni qiyoslashda esa qiyosiy usul ishlatildi. Ilmiy abstraksiya va mantiqiy modellashtirish konseptual sxemani shakllantirishga xizmat qildi. Elementlar tasnifi uch mezon asosida asoslandi: nazariy manbalarda mustaqil obyekt sifatida eʼtirof etilishi, oʻlchash uchun indikator guruhiga ega boʻlishi va boshqa elementlarga toʻliq siqilmasligi.

Indikator guruhlarini shakllantirish tartibi xalqaro uslubiy qoʻllanmada asoslangan bosqichlarga muvofiq belgilandi: nazariy modelni aniqlash, koʻrsatkichlarni tanlash, maʼlumotlarni normallashtirish, ogʻirliklarni

belgilash, agregatlash hamda natijaning barqarorligini tekshirish [16]. Elementlarning nisbiy ahamiyatini aniqlashda iyerarxiyalarni tahlil qilish usuli nazariy jihatdan qulay hisoblanadi, chunki juftlik solishtirmalari matritsasi va izchillik indeksi ekspert baholarining sifatini nazorat qilish imkonini beradi [17].

Tushuncha tuzilishi uch qatlamli mantiq asosida ifodalandi. Yuqori qatlam rivojlanishning umumiy mazmunini – iqtisodiy makonning sifat jihatidan yangilanishini belgilaydi. O‘rta qatlam tarkibiy elementlarni ajratadi va ular o‘rtasidagi funksional taqsimotni ko‘rsatadi. Quyi qatlam elementlarni o‘lchash uchun indikator guruhlarini birlashtiradi. Qatlamlar o‘rtasidagi izchillik tushuncha ta’rifi bilan o‘lchov tizimi o‘rtasidagi mantiqiy uzilishning oldini oladi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Nazariy umumlashtirish natijasida mintaqaviy rivojlanish tushunchasining tarkibiy tuzilishi konseptual sxema ko‘rinishida ifodalandi. Sxema tushunchaning umumiy mazmunidan tarkibiy elementlarga va ulardan integral natijaga qadar bo‘lgan mantiqiy yo‘lni ko‘rsatadi (1-rasm).




**1-rasm. Mintaqaviy rivojlanish tushunchasining tarkibiy tuzilishi va elementlar o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik[1]**

Sxemaning yuqori darajasi tushunchaning umumiy mazmunini belgilaydi va rivojlanishni hajmiy o‘sishdan ajratadi. O‘rta daraja to‘rt asosiy elementni birlashtiradi. Iqtisodiy element ishlab chiqarish, investitsiya va qo‘shilgan qiymat jarayonlarini qamrab oladi. Ijtimoiy element aholi daromadi, bandlik barqarorligi va xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini ifodalaydi. Institutsional element boshqaruv qoidalari, qarorlar muvofiqligi va mahalliy institutlarning ishonchliligini tavsiflaydi. Fazoviy element joylashuv, to‘planish va bog‘lanish darajasini belgilaydi. Quyi daraja elementlarning birgalikdagi natijasini – barqaror o‘sish, bandlik va aholi farovonligini aks ettiradi.

Elementlarning kengaytirilgan tasnifi va ularga mos indikator guruhlari 1-jadvalda umumlashtirildi (1-jadval).

1-jadval
Mintaqaviy rivojlanishning tarkibiy elementlari va ularning indikator guruhlari[2]

| Element | Mazmuniy tavsifi | Asosiy indikator guruhi | **Manba** |
|---|---|---|---|
| Iqtisodiy element | Ishlab chiqarish, investitsiya va qo‘shilgan qiymat jarayonlari | Yalpi hududiy mahsulot, investitsiya hajmi | [3] |
| Inson kapitali elementi | Ta’lim darajasi, malaka tuzilmasi va mehnat salohiyati | Ta’lim qamrovi, bandlik tuzilmasi | [5] |
| Innovatsion element | Bilim yaratish, tarqatish va o‘zlashtirish jarayonlari | Tadqiqot xarajatlari, yangi mahsulot ulushi | [6] |
| Fazoviy element | Joylashuv, to‘planish va bog‘lanish darajasi | Iqtisodiy zichlik, transport bog‘lanishi | [7] |
| Tarmoq-klaster elementi | Korxonalararo kooperatsiya va qo‘shilgan qiymat zanjiri | Klaster ishtirokchilari, kooperatsiya ko‘lami | [9] |
| Institutsional element | Boshqaruv qoidalari, qarorlar muvofiqligi va ishonch darajasi | Boshqaruv sifati baholari, xizmat ko‘rsatish tezligi | [15] |
| Ijtimoiy element | Daromad, farovonlik va ijtimoiy xizmatlardan foydalanish | Aholi jon boshiga daromad, xizmatlar qamrovi | [14] |

1 Muallif ishlanmasi
2 Manba: [3], [5], [6], [7], [9], [14] va [15] manbalar asosida muallif tomonidan tuzildi.

Tasnifning nazariy qiymati elementlar oʻrtasidagi funksional taqsimotni aniq belgilashda namoyon boʻladi. Iqtisodiy va innovatsion elementlar rivojlanishning manba tomonini, fazoviy va tarmoq-klaster elementlari uni harakatga keltiruvchi mexanizmni, institutsional element esa jarayonning tartibga solinishini ifodalaydi. Ijtimoiy element yakuniy natijani oʻlchaydi va rivojlanishni inson manfaatlari bilan bogʻlaydi. D. Acemoglu, S. Johnson va J. Robinson tomonidan asoslangan institutsional tuzilmaning uzoq muddatli iqtisodiy natijalarga taʼsiri ushbu taqsimotni nazariy jihatdan mustahkamlaydi [18].

Xalqaro amaliyot taklif etilgan tuzilma bilan mazmunan mos keladi. Jahon banki hududiy integratsiyaning uch vositasini – fazoviy jihatdan neytral institutlar, bogʻlovchi infratuzilma va maqsadli aralashuvlarni ajratib, ularning uygʻun qoʻllanishi rivojlanish natijalarini kuchaytirishini asosladi [19]. Yevropa Ittifoqining hududiy raqobatbardoshlik indeksi esa koʻrsatkichlarni asosiy, samaradorlik va innovatsion guruhlarga birlashtirib, hududlarni rivojlanish bosqichiga qarab qiyoslash imkonini beradi [20]. Ikki yondashuvning tuzilmaviy mantigʻi maqolada ajratilgan elementlar tizimini tasdiqlaydi.

Oʻzbekiston sharoitida tushunchaning amaliy qoʻllanishi uchun qulay zamin mavjud. “Oʻzbekiston – 2030” strategiyasi hududlarni rivojlantirish, aholi farovonligini oshirish va barqaror iqtisodiy oʻsishni taʼminlash boʻyicha maqsadli koʻrsatkichlar tizimini belgilab berdi [21]. Rasmiy statistik baza yalpi hududiy mahsulot, bandlik va daromad koʻrsatkichlarini hududlar kesimida muntazam shakllantirib bormoqda va ajratilgan elementlarni empirik oʻlchash uchun ishonchli maʼlumot manbasini taʼminlaydi [22]. Mavjud statistik qamrov tasnifning barcha bloklarini amaliy tadqiqotda toʻldirish imkonini beradi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Nazariy tadqiqot mintaqaviy rivojlanishni iqtisodiy makonning sifat jihatidan yangilanishini ifodalovchi koʻp oʻlchovli toifa sifatida taʼriflash imkonini berdi. Tushuncha hajmiy oʻsishdan farqlanadi va oʻz ichiga iqtisodiy, ijtimoiy, institutsional hamda fazoviy oʻlchovlarni birgalikda qamrab oladi.

Birinchidan, hududiy tadqiqotlarda rivojlanish tushunchasini oldindan aniq taʼriflash va tanlangan taʼrifga muvofiq elementlar tasnifini belgilash tavsiya etiladi. Ikkinchidan, har bir elementga mustaqil indikator guruhini biriktirish oʻlchov tizimining ichkarisini mustahkamlaydi va natijalarning taqqoslanuvchanligini oshiradi.

Uchinchidan, institutsional elementni tasnifda mustaqil blok sifatida saqlash maqsadga muvofiq, chunki boshqaruv sifati boshqa elementlarning natijadorligini belgilaydi. Toʻrtinchidan, ijtimoiy elementni yakuniy natija oʻlchovi sifatida qoʻllash rivojlanish tushunchasini inson manfaatlari bilan bogʻlaydi.

Beshinchidan, indikator guruhlarini shakllantirishda xalqaro uslubiy qoʻllanmaning bosqichlariga amal qilish va sezgirlik tahlilini majburiy element sifatida kiritish tavsiya etiladi. Oltinchidan, milliy strategik hujjatlarda belgilangan maqsadli koʻrsatkichlar bilan tasnif elementlarini muvofiqlashtirish hududiy monitoringning izchilligini taʼminlaydi. Taklif etilgan tuzilma keyingi empirik tadqiqotlarda oʻlchov modelini shakllantirish uchun nazariy tayanch vazifasini bajaradi.

## FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI:

1. Perroux F. Economic Space: Theory and Applications // The Quarterly Journal of Economics. - 1950. - Vol. 64, No. 1. - P. 89-104. https://doi.org/10.2307/1881960
2. North D.C. Location Theory and Regional Economic Growth // Journal of Political Economy. - 1955. - Vol. 63, No. 3. - P. 243-258. https://doi.org/10.1086/257668
3. Solow R.M. A Contribution to the Theory of Economic Growth // The Quarterly Journal of Economics. - 1956. - Vol. 70, No. 1. - P. 65-94. https://doi.org/10.2307/1884513
4. Williamson J.G. Regional Inequality and the Process of National Development: A Description of the Patterns // Economic Development and Cultural Change. - 1965. - Vol. 13, No. 4. - P. 1-84. https://doi.org/10.1086/450136
5. Lucas R.E. On the Mechanics of Economic Development // Journal of Monetary Economics. - 1988. - Vol. 22, No. 1. - P. 3-42. https://doi.org/10.1016/0304-3932(88)90168-7
6. Romer P.M. Endogenous Technological Change // Journal of Political Economy. - 1990. - Vol. 98, No. 5. - P. S71-S102. https://doi.org/10.1086/261725
7. Krugman P. Increasing Returns and Economic Geography // Journal of Political Economy. - 1991. - Vol. 99, No. 3. - P. 483-499. https://doi.org/10.1086/261763
8. Storper M. The Resurgence of Regional Economies, Ten Years Later: The Region as a Nexus of Untraded Interdependencies // European Urban and Regional Studies. - 1995. - Vol. 2, No. 3. - P. 191-221. https://doi.org/10.1177/096977649500200301

9. Porter M.E. Location, Competition, and Economic Development: Local Clusters in a Global Economy // Economic Development Quarterly. - 2000. - Vol. 14, No. 1. - P. 15-34. https://doi.org/10.1177/089124240001400105
10. Camagni R. On the Concept of Territorial Competitiveness: Sound or Misleading? // Urban Studies. - 2002. - Vol. 39, No. 13. - P. 2395-2411. https://doi.org/10.1080/0042098022000027022
11. Boschma R. Proximity and Innovation: A Critical Assessment // Regional Studies. - 2005. - Vol. 39, No. 1. - P. 61-74. https://doi.org/10.1080/0034340052000320887
12. Cooke P., Gomez Uranga M., Etxebarria G. Regional Innovation Systems: Institutional and Organisational Dimensions // Research Policy. - 1997. - Vol. 26, No. 4-5. - P. 475-491. https://doi.org/10.1016/S0048-7333(97)00025-5
13. Martin R., Sunley P. On the Notion of Regional Economic Resilience: Conceptualization and Explanation // Journal of Economic Geography. - 2015. - Vol. 15, No. 1. - P. 1-42. https://doi.org/10.1093/jeg/lbu015
14. Rodríguez-Pose A. The Revenge of the Places That Don't Matter (and What to Do about It) // Cambridge Journal of Regions, Economy and Society. - 2018. - Vol. 11, No. 1. - P. 189-209. https://doi.org/10.1093/cjres/rsx024
15. Barca F., McCann P., Rodríguez-Pose A. The Case for Regional Development Intervention: Place-Based versus Place-Neutral Approaches // Journal of Regional Science. - 2012. - Vol. 52, No. 1. - P. 134-152. https://doi.org/10.1111/j.1467-9787.2011.00756.x
16. OECD, European Union, Joint Research Centre. Handbook on Constructing Composite Indicators: Methodology and User Guide. - Paris: OECD Publishing, 2008. https://doi.org/10.1787/9789264043466-en
17. Saaty T.L. How to Make a Decision: The Analytic Hierarchy Process // European Journal of Operational Research. - 1990. - Vol. 48, No. 1. - P. 9-26. https://doi.org/10.1016/0377-2217(90)90057-I
18. Acemoglu D., Johnson S., Robinson J.A. The Colonial Origins of Comparative Development: An Empirical Investigation // American Economic Review. - 2001. - Vol. 91, No. 5. - P. 1369-1401. https://doi.org/10.1257/aer.91.5.1369
19. World Bank. World Development Report 2009: Reshaping Economic Geography. - Washington, D.C.: World Bank, 2009. https://openknowledge.worldbank.org/handle/10986/5991
20. Dijkstra L., Papadimitriou E., Cabeza Martinez B., de Dominicis L., Kovacic M. EU Regional Competitiveness Index 2.0 - 2022 edition. Working Papers WP 01/2023. - Brussels: European Commission, DG for Regional and Urban Policy, 2023. https://ec.europa.eu/regional_policy/sources/work/rci_2022/eu-rci2_0-2022_en.pdf
21. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026-yil 16-fevraldagi "Mamlakat taraqqiyotining 2030-yilgacha mo'ljallangan ustuvor yo'nalishlari doirasida islohotlarni izchil davom ettirish va yangi bosqichga olib chiqishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-21-son Farmoni // URL: https://lex.uz/uz/docs/-8050769
22. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Milliy hisoblar: yalpi hududiy mahsulot bo'yicha rasmiy statistika. https://stat.uz/uz/rasmiy-statistika/national-accounts-2

YASHIL

IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

*Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal*

**Ingliz tili muharriri:** Feruz HAKIMOV

**Musahhih:** Zokir ALIBEKOV

**Sahifalovchi va dizayner:** Hasan MAQSUDOV

**2026. № 8/1**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz